

AGROBIZNES, FAN VA TEKNOLOGIYALAR

АГРОБИЗНЕС, НАУКА
И ТЕХНОЛОГИИ

AGRIBUSINESS,
SCIENCE AND
TECHNOLOGY

ILMIY - AMALIY
ELEKTRON JURNAL

№ 083688



ISSN: 3060-5245

TOSHKENT - 2025



BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), prof.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – qishloq xo'jaligi fanlari doktori (DSc), prof.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – qishloq xo'jaligi fanlari doktori (DSc), prof.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), prof.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalet Xaymullayevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – iqtisodiyot fanlari doktori, (Germaniyaning

Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenė – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboeva Nargiza Alikulovna – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:

08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), prof.

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), prof.

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), prof.

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), prof.

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), prof.

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n, prof.

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n, dots.

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dots.

Gallimova Feryuza Rafikovna – i.f.n, dots.

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dots.

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD).

Tojiboyeva Nafisa Raxmiddin qizi – i.f.f.d. (PhD).

Mardiyyev Nurali – i.f.n, dots.

Kuvnakov Xaydar Kasimovich – i.f.n, dots.

Siddikov Zaxid Tulkunovich – i.f.n, v.b.prof.

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n, dots.

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dots.

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dots.

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dots.

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), prof.

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc).

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc).

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc).

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc).

Xalilov Ilhom Mamatkulovich – b.f.d. (DSc), k.i.x.

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dots.

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), prof.

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), dots.

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., k.i.x.

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n., prof.

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD).

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dots.

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dots.

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD).

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dots.

Elboboyev Abduq'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD).

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n., dots.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray

tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 30.11.2024-yildagi

№364/5-sonli qarori bilan

08.00.00-Iqtisodiyot fanlari

bo'yicha, 08.05.2025-yildagi

№370/5-sonli qarori bilan

06.00.00-Qishloq xo'jaligi

fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar

asosiy ilmiy natijalarini chop

etish tavsiya etilgan milliy ilmiy

nashrlar ro'yxati" ga kiritilgan.

Elektron nashr, 853 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil

30-dekabrda ruxsat etildi.



“AGROBIZNES, FAN VA TEKNOLOGIYALAR” ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNALI

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menegment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati.

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI

- 06.01.01 – Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik
- 06.01.02 – Melioratsiya va sug‘orma dehqonchilik
- 06.01.03 – Agrotuproqshunoslik va agrofizika
- 06.01.05 – Seleksiya va urug‘chilik
- 06.01.06 – Sabzavotchilik
- 06.01.07 – Mevachilik va uzumchilik
- 06.01.08 – O‘simlikshunoslik
- 06.01.09 – O‘simliklarni himoya qilish
- 06.01.11 – Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash
- 06.02.02 – Qishloq xo‘jaligi hayvonlarini oziqlantirish va ozuqa tayyorlash texnologiyasi
- 06.02.03 – Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi
- 06.03.01 – O‘rmon ekinlari. Seleksiya, urug‘chilik va shaharlarni ko‘kalamzorlashtirish. O‘rmonlar agromelioratsiyasi va himoya o‘rmonlarini barpo etish, Dorivor o‘simliklar introduksiyasi, yetishtirish texnologiyasi va agrofarmekologiyasi.





M U N D A R I J A

IQTISODIYOT FANLARI

SHERIPBAYEVA UMIDA ATABAYEVNA

Global iqlim o'zgarishi sharoitida qishloq xo'jaligini rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishlari.....14

TURDIQULOVA GULMIRA OBIDQUL QIZI

Foyda solig'ining iqtisodiy kategoriya sifatida o'rni va ahamiyati.....20

BERDIYOROV TEMUR AZAMATOVICH

Jamoat transporti faoliyatida marketing faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish.....26

BABAYEVA LOLA IBRAGIMOVNA

Xizmat ko'rsatish sohasida raqamli transformatsiya jarayonlari va ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri.....33

RAXIMOV MANSUR MAQSUDBEKOVICH, MIRZAMURODOV HOJIAKBAR ABDURAXMON O'G'LI

Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari.....43

OTAVULLAEV SUKHROB SA'DULLO O'G'LI

Issiqxonalar samaradorligini baholash metodikasini tanlash va ishlab chiqish.....49

XUDAYNAZAROVA DILNOZA GAFUROVNA

Farmasevtika korxonalarida ta'minot jarayonlari buxgalteriya hisobini takomillashtirish.....54

OTAVULLAEV SUKHROB SA'DULLO O'G'LI

Issiqxona xo'jaligining tashkiliy-iqtisodiy modelini o'rganishga oid nazariy va metodologik yondashuvlarni tahlil qilish.....61

УРМАНОВА УМИДА ХАКИМДЖАНОВНА

Бюджетирование и его влияние на эффективность управления фермерскими хозяйствами.....66

XAYDAROV SARDOR KOMIL O'G'LI

Qishloq xo'jaligida bioiqtisodiyotni qo'llash va ekologik innovatsiyalar orqali agroklasterlarni rivojlantirish istiqbollari.....73

KARIMOV ANVARJON

Agrosanoat klasterlarida suv resurslaridan samarali foydalanishni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....79

ДЕХКАНОВА ШАХЛОХОН САГДИЕВНА

Роль цифровизации в социально-экономическом развитии государства.....87





SAFAROV ASQARBEK ASADULLAYEVICH, KASIMOV BOTIR SADRIDDINOVICH, NORMURODOV SARVAR NORBOY O‘G‘LI	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashda innovatsion yondashuvlar.....	93
BURIYEV SHERZOD AXADOVICH	
Hududlar iqtisodiyotida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	101
SAYITQULOV JAHONGIR ILHOMOVICH	
Raqamli bank xizmatlari va ularni transformatsiyalash tahlili.....	106
MIRZAYEV MUSURMON UMIDULLAYEVICH	
Kichik sanoat zonalarini rivojlantirish asosida aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari.....	112
MADRAXIMOV QAHRAMON EGAMBERGANOVICH	
O‘zbekiston hududlari iqtisodiy rivojlanishidagi nomutanosibliklarni baholash va ularni kamaytirishning zamonaviy mexanizmlari.....	117
FAYZIYEVA DILSUZ BAHODIROVNA	
O‘zbekistonda iqtisodiy o‘rish omillari va ularning ijtimoiy tengsizlikka ta’siri.....	130
RAXIMOVA SHAXNOZA XAMZAYEVNA	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda menejment tizimini transformatsiya qilish va jamoatchilik bilan hamkorlikning strategik mexanizmlari.....	139
RASULOV NURIDDIN ABDULLAYEVICH	
Islomiy moliya tamoyillari asosida innovatsiyalarni moliyalashtirish.....	146
FAYZIYEVA DILSUZ BAHODIROVNA	
Innovatsiyalarning iqtisodiy o‘rsh va tengsizlikka ta’siri.....	159
DJURAYEV OLIMJON NARKULOVICH, SHODIYEV JAHONGIR OBIDJON O‘G‘LI	
Raqamli texnologiyalar sharoitida ta’lim tizimida inson resurslarini boshqarishda HR-analitika va sun’iy intellektni qo‘llash tendensiyalari.....	168
MATRIZAYEV SARVARBEK ANVAR O‘G‘LI, ABDURAXMONOV JAVLONBEK RAVSHAN O‘G‘LI, MALIKOV NU‘MONJON KAMALOVICH	
AQSH va Xitoy o‘rtasidagi savdo siyosatining tahlili.....	176
RASHIDOV JAMSHID XAMIDOVICH	
To‘qimachilik korxonalarida innovatsion faoliyat xatarlarini vujudga kelishining o‘ziga xos xususiyatlari.....	189
ЭЛЬБАЕВА МУКАДДАС РАШИДОВНА	
Отношения между налоговыми органами и налогоплательщиками: правовая природа, структура и тенденции развития.....	197
TURAYEVA GULIZAHRO	
Qishloq xo‘jaligini texnik modernizatsiyalashda xorijiy tajribalar.....	205





O'ZBEKISTONDA IQTISODIY O'SISH OMILLARI VA ULARNING IJTIMOIY TENGSIZLIKKA TA'SIRI

FAYZIYEVA DILSUZ BAHODIROVNA

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrası assistenti

E-mail: d.fayzieva@tsue.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda iqtisodiy o'sishning asosiy omillari va ularning ijtimoiy tengsizlik darajasiga ko'rsatadigan ta'siri tahlil qilinadi. Bozor islohotlari, investitsiyalar oqimi, sanoat diversifikatsiyasi, raqamli transformatsiya hamda kichik biznesni rivojlantirish kabi omillarning iqtisodiy faollikni oshirishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, bu jarayonlarning hududlararo farqlar, daromadlar notekis taqsimlanishi, bandlik sifati va kambag'allik darajasi bilan bog'liq ijtimoiy ko'rsatkichlarga ta'siri empirik misollar asosida baholanadi. Tadqiqot natijalari iqtisodiy o'sishning barqaror bo'lishi uchun tengsizlikni yumshatish va inkluziv rivojlanish mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy o'sish, tengsizlik, investitsiyalar, bandlik, diversifikatsiya, raqamli iqtisodiyot, hududlararo tafovut.

Аннотация. В статье анализируются основные факторы экономического роста в Узбекистане и их влияние на уровень социального неравенства. Рассматриваются роль рыночных реформ, притока инвестиций, промышленной диверсификации, цифровой трансформации и развития малого бизнеса в повышении экономической активности. Также оценивается воздействие данных процессов на региональные различия, неравномерное распределение доходов, качество занятости и уровень бедности на основе эмпирических данных. Результаты исследования подчеркивают необходимость укрепления механизмов инклюзивного развития для обеспечения устойчивого роста и уменьшения неравенства.

Ключевые слова: экономический рост, неравенство, инвестиции, занятость, диверсификация, цифровая экономика, региональные различия.

Abstract. This article analyzes the main drivers of economic growth in Uzbekistan and their impact on the level of social inequality. It explores the role of market reforms, investment inflows, industrial diversification, digital transformation, and the development of small businesses in enhancing economic activity. The study also examines how these processes influence regional disparities, unequal income distribution, employment quality, and poverty levels using empirical evidence. The findings highlight the necessity of strengthening inclusive development mechanisms to ensure sustainable economic growth while reducing inequality.

Keywords: economic growth, inequality, investment, employment, diversification, digital economy, regional disparities.





KIRISH

Mamlakatlarning barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan iqtisodiy o'sish sur'atlari, uning sifat ko'rsatkichlari hamda bu jarayonning ijtimoiy adolat tamoyillari bilan uyg'unlashuviga bog'liq. So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyoti modernizatsiya, liberallashtirish va raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan chuqur islohotlar bosqichiga kirgani natijasida yalpi ichki mahsulot hajmi ortib, iqtisodiy faollik yangi bosqichga ko'tarildi. Investitsiyaviy muhitning yaxshilanishi, sanoatning diversifikatsiyasi, infratuzilmaning yangilanishi, raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash O'zbekiston iqtisodiy o'sishining asosiy drayverlari sifatida shakllandi.

Shu bilan birga, iqtisodiy o'sish jarayonlari hamisha ijtimoiy tengsizlikka qanday ta'sir ko'rsatishi haqida munozarali masalalar mavjud. Iqtisodiy o'sish jamiyat farovonligini umumiy ravishda oshirishi mumkin bo'lsa-da, daromadlarning notekis taqsimlanishi, hududlararo rivojlanish tafovutlari, bandlik sifati va kambag'allik darajasidagi farqlar mazkur o'sishning ijtimoiy samaradorligini cheklab qo'yishi mumkin. Xususan, O'zbekistonda yuqori o'sish sur'atlari kuzatilayotgan bo'lsa-da, uning barcha qatlamlar va hududlarga bir xil darajada ta'sir qilayotganligi to'liq ta'minlanmagan.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, barqaror iqtisodiy o'sish tengsizlikning chuqurlashuviga emas, aksincha, ijtimoiy adolat va inklyuziv taraqqiyotga xizmat qilishi lozim. Shu ma'noda, iqtisodiy o'sish omillarini kompleks tahlil qilish va ularning ijtimoiy tengsizlikka bevosita va bilvosita ta'sirini aniqlash O'zbekistonning kelgusi rivojlanish strategiyalarini belgilashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Ushbu maqolada O'zbekistonda iqtisodiy o'sishga ta'sir qiluvchi asosiy omillar tizimli ravishda o'rganilib, ularning ijtimoiy tengsizlik darajasiga ta'siri ilmiy asoslangan tahlillar orqali yoritiladi. Shuningdek, mavjud muammolarni yumshatish va inklyuziv iqtisodiy modelni takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekiston iqtisodiyoti so'nggi yillarda tub islohotlar jarayonini boshdan kechirmoqda. Iqtisodiy o'sish, uning tarkibiy omillari hamda bu o'sishning ijtimoiy tengsizlikka ta'siri masalasi bugungi ilmiy tadqiqotlarda muhim o'rinni egallaydi.

Klassik iqtisodiy nazariya vakillari A. Smit, D. Rikardo va J. B. Sey kabi olimlar iqtisodiy o'sishni mehnat, kapital va tabiiy resurslar samaradorligi bilan izohlashgan. Neoklassik model vakillari R. Solou va T. Svon esa iqtisodiy o'sishda texnologik taraqqiyotning hal qiluvchi omil ekanini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, endogen o'sish nazariyalari inson kapitali, innovatsiyalar va bilim iqtisodiy rivojlanishning asosiy manbai ekanini ilmiy asoslab bergan.

Mustaqillikdan so'ng O'zbekiston iqtisodiyoti bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilindi. Rasmiy manbalarda O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, 2020–2023 qayd etilishicha, iqtisodiy o'sish ko'p jihatdan sanoat, qishloq





xo'jaligi va xizmat ko'rsatish sohalarining kengayishi, shuningdek, investitsiyalar oqimi va eksport salohiyatining ortishi hisobiga ro'y bermoqda.

Shuningdek, Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) va Jahon banki hisobotlariga ko'ra, so'nggi yillarda O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik, valyuta liberallasuvi hamda tadbirkorlik muhitining yaxshilanishi iqtisodiy o'sishni tezlashtirayotgan omillar sifatida ko'rsatilgan.

Iqtisodiy o'sish ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishi yoki kuchaytirishi mumkin. Kuzatuvlarga ko'ra, O'zbekistonda yalpi daromad o'sib borayotgan bo'lsa-da, hududlar va ijtimoiy qatlamlar o'rtasidagi farqlar saqlanib qolmoqda. Tadqiqotchi A. Vahobov va Sh. Tohirovlarning ishlari shuni ko'rsatadiki, urbanizatsiya darajasi yuqori bo'lgan hududlarda aholi daromadlari tezroq o'sadi, qishloq joylarda esa iqtisodiy imkoniyatlar nisbatan chegaralangan.

Gini koeffitsienti bo'yicha ma'lumotlar UNDP ijtimoiy tengsizlik hali ham o'rta darajada ekanini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, iqtisodiy o'sish barqaror bo'lishi uchun inson kapitaliga, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimiga yo'naltirilgan investitsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi.

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi asosiy omillar – investitsiyalar, texnologik modernizatsiya, inson kapitaliga sarmoya va institutsional islohotlardir. Shu bilan birga, adabiyotlar ijtimoiy tengsizlikning kamaytirilishi o'sishning ijobiy ta'sirini ta'minlash uchun zarurligini ta'kidlaydi. Demak, iqtisodiy o'sish siyosati ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bo'lishi, daromadlar taqsimotidagi farqlarni yumshatishga qaratilishi kerak.

TADQIQOT METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqot O'zbekiston iqtisodiyotida o'sish omillarining shakllanishini, ularning tarkibiy dinamikasini hamda mazkur omillarning ijtimoiy tengsizlikka ko'rsatadigan bevosita va bilvosita ta'sirini chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Metodologiya zamonaviy iqtisodiy tahlil mezonlariga tayangan holda ishlab chiqilgan bo'lib, aralash tadqiqot yondashuvi mixed-methods asosida miqdoriy quantitative va sifat qualitative usullar uyg'unlashtirilgan.

Tadqiqotning konseptual modeli quyidagi nazariyalarga tayandi. Iqtisodiy o'sish nazariyalari. Klassik va neoklassik yondashuvlar A. Smit, R. Solow ishlab chiqarish omillari ta'siri. Endogen o'sish nazariyasi P.Romer, R. Lukas innovatsiya, bilim, texnologiya rolini tushuntiradi. Institutional iqtisodiyot D. North iqtisodiy institutlar, islohotlar va boshqaruv sifati ta'siri.

Ijtimoiy tengsizlik nazariyalari kuznets gipotezasi o'sish bilan tengsizlik o'rtasidagi "invertis U" bog'liqlik. Inson kapitali nazariyasi ta'lim farqlari daromadlar farqiga olib kelishi. Hududiy rivojlanish nazariyalari markaz va periferiyaning iqtisodiy tafovutlari. Ushbu nazariy yondashuvlar asosida o'sish omillari va tengsizlik ko'rsatkichlari orasidagi mexanizmni ifodalovchi analitik konseptual model ishlab chiqildi.

Ma'lumotlar manbalari va ularning shakllantirilishi tadqiqot 2010–2024 yillar oralig'ida mavjud bo'lgan statistik ma'lumotlarga tayandi. O'zbekiston Respublikasi



Statistika agentligi YaIM, inflyatsiya, sanoat, bandlik, hududiy ko'rsatkichlar. Jahon banki (WDI) Gini koeffitsienti, farovonlik, ta'lim ko'rsatkichlari. IMF makroiqtisodiy barqarorlik va fiskal ko'rsatkichlar. UNDP Inson taraqqiyoti indeksi (HDI), ijtimoiy rivojlanish indikatorlari. OECD va ADB ma'lumotlari mehnat bozori va innovatsion rivojlanish ko'rsatkichlari.

Bundan tashqari, hukumat hisobotlari, iqtisodiy islohotlar monitoringi, hududlar bo'yicha rivojlanish dasturlari va ilmiy manbalar tahlil qilindi. O'zgaruvchilar va ularning tanlanish mezonlari tadqiqotda foydalanilgan metodlar Deskriptiv va komparativ tahlil.

O'zbekiston iqtisodiy o'sish dinamikasi, sektorlar ulushi va hududlar bo'yicha farqlar tahlil qilindi. Tengsizlik darajalari vaqt bo'yicha va mintaqalar kesimida taqqoslandi. O'zbekiston rivojlanayotgan davlatlar bilan solishtirildi masalan Qozog'iston, Malayziya, Turkiya, Vyetnam davlatlari.

Ekonometrik modellashtrish maqsadi o'sish omillarining tengsizlikka ta'sirini aniqlash. OLS regressiya modeli Gini koeffitsientiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash. Ko'rsatkichlar orasidagi asosiy bog'lanishlarni o'lchash.

Panel ma'lumotlar modellari Fixed Effects hududlarga xos doimiy ta'sirlarni hisobga olish. Random Effects tasodifiy farqlarni modellashtrish. Hausman testi optimal modelni tanlash. Kuznets egri chizigini empiric testlash YaIM o'sishi va tengsizlik o'rtasidagi nolinear bog'lanishni aniqlash uchun kvadratik model.

VAR, VECM modeli O'zgaruvchilar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni dinamik tarzda baholash. Gini koeffitsienti va YaIM o'sishining bir-biriga vaqt bo'yicha bog'liqligi. Iqtisodiy o'sish tengsizlikka sabab bo'ladimi yoki aksincha empirik aniqlash. "Harakatlar strategiyasi", "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi", investitsiya dasturlari, kambag'allikni kamaytirish bo'yicha davlat siyosati tahlil qilindi. Ekspert intervyulari iqtisodchilar, universitet professorlari, siyosat ishlab chiquvchilar bilan yarim strukturalangan intervyular o'tkazildi.

O'sish omillarining ustuvor yo'nalishlari ijtimoiy tengsizlikning asosiy sabablari islohotlarning samaradorligi olingan sifat ma'lumotlari ekonometrik natijalarni chuqurlashtirish uchun qo'llanildi.

Ma'lumotlarning ishonchiligi tadqiqot natijalarining aniqligi quyidagi testlar orqali tekshirildi:

- ✓ Multikollinearlik testi (VIF)
- ✓ Durbin Watson testi – avtoregressiya aniqligi
- ✓ Breusch Pagan testi – heteroskedastiklik
- ✓ Jarque Bera – normal taqsimot
- ✓ Stasionarlik testi (ADF) – vaqt qatorlarining mosligi.

Shuningdek, o'zgaruvchilar korrelyatsiyasi tahlil qilinib, modelda ortiqcha bog'liq o'zgaruvchilar qoldirilmadi.


Tadqiqotning cheklovlari ayrim yillarga oid ma'lumotlarning yetarli bo'lmasiligi. Norasmiy iqtisodiyot ulushining katta bo'lishi daromad va bandlik statistikalariga ta'sir qilishi. Ayrim ma'lumotlar faqat hududlar bo'yicha umumlashtirilgan shaklda berilishi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Mamlakatda iqtisodiy oʻsish boʻlsa-da uning foydasi teng taqsimlanmayapti; bu ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi. Siyosiy chora-tadbirlar: daromadlarni teng taqsimlash, hududlararo tengsizlikni kamaytirish, periferiyalar va ijtimoiy sektor tarmoqlariga investitsiyalarni oshirish eng zarur. Ish haqi, xizmatlar, maoshlar va yashash sharoitlari boʻyicha “samarali redistributsiya” mexanizmlari ishlab chiqilishi lozim. Keyingi tadqiqotlar norasmiy sektor daromadlari, migratsiya, remittans va xususiy sektor ulushlarini chuqur tahlil qilishi kerak chunki hozirgi rasmiy statistikalar hamma daromad manbalarini aks ettirmasligi ehtimoli bor. Koʻrsatilgan maʼlumotlar ommaviy eʼlon qilingan statistika va jurnalistik manbalardan olingan; lekin mikro-daromadlar, norasmiy daromadlar va yashirin iqtisodiyot hisobga olinmagan. Gini koeffitsienti kabi indikatorlar daromad taqsimotining umumiy tengsizlik darajasini koʻrsatadi lekin boylik, mol-mulk, kadastr yoki aktivlar boʻyicha tengsizlikni hisoblamaydi. Hududlar aro tafovut va shahar-qishloq farqliligi mavjud, lekin bu hamkorlikdagi tahlil uchun yetarli chuqurlikda emas.

Oʻzbekistonda 2020–2024 yillar davomida yalpi ichki mahsulot (YAIM) oʻsishi barqaror tendensiyani namoyon etdi. Tadqiqot natijalari iqtisodiy oʻsishning uchta asosiy omil bilan izohlanayotganini koʻrsatdi:

1. Investitsiyalar hajmining oshishi (ichki va tashqi).
2. Sanoat va xizmatlar sektorida tarkibiy oʻzgarishlar.
3. Mehnat bozori va inson kapitali sifatidagi oʻsish.



1-rasm. Oʻzbekiston iqtisodiy oʻsishining asosiy makroindikatorlari (2022-2024)[9]

2020–2024 yillar mobaynida Oʻzbekiston iqtisodiyotida kuzatilgan makroiqtisodiy dinamikalar barqaror oʻsish modelining shakllanayotganini, biroq ushbu jarayon turli omillar taʼsirida differensial tus olayotganini koʻrsatadi. Jadvalning har bir indikatoriga chuqur tahliliy yondashuv quyidagilarni namoyon etadi:



YAIM ko'rsatkichining 2020 yildagi 1,7 foizlik past darajasi pandemiya ta'siri bilan bog'liq bo'lsa-da, 2021 yildan boshlab iqtisodiy faollikning tiklanishi natijasida o'sish 7,4 foizga yetgan. Keyingi yillarda o'sish sur'atining 5,7–6,3 foiz atrofida stabilashuvi iqtisodiy o'sishning tarkibiy, modernizatsiya asosida shakllangan barqaror bosqichga o'tayotganini anglatadi. YAIM o'sishining nisbatan barqaror darajada ushlanib turishi quyidagi omillar bilan izohlanadi sanoatni modernizatsiya qilish, xizmatlar sektorining jadal rivojlanishi, investitsiyalar oqimining ko'payishi, makroiqtisodiy barqarorlikning mustahkamlanishi.

Investitsiyalar hajmi yillar davomida uzluksiz oshib borgan: 2020 yildagi 5,6 foizdan 2024 yilda 8,5 foizgacha. Bu tendensiya asosiy kapitalning yangilanishi, ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi va texnologik modernizatsiya jarayonlarining jadallashganidan dalolat beradi. Investitsiyalar o'sishi YAIM o'sishining asosiy drayveri bo'lib, u uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishning kapital jamg'arish modelini shakllantiradi. Shuningdek xorijiy investitsiyalar ulushi oshgan infratuzilma loyihalarining ko'lami kengaygan davlat–xususiy sheriklik mexanizmlari faollashgan. Investitsiya o'sishidagi uzluksizlik makroiqtisodiy ishonchning mustahkamlanayotganidan darak beradi.

Sanoat ishlab chiqarishi 2020 yilda 0,6 foiz bilan eng past darajada bo'lgan bo'lsa, keyingi yillarda 8,7 foizgacha keskin oshgan va so'ng barqarorlashgan (5,2–7,2 foiz). Bu, bir tomondan, pandemiya davridan keyingi tiklanish jarayonini, ikkinchi tomondan, sanoatning tarkibiy transformatsiyasi – energiya, kimyo, elektr texnikasi va mashinasozlik tarmoqlarining modernizatsiyasi bilan bog'liq. Sanoatning qayta tiklanish sur'ati ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi texnologik yangilanish eksportga yo'naltirilgan mahsulot turlarining ko'payishi natijasida vujudga kelgan.

Xizmatlar sektori ulushining 34 foizdan 40 foizgacha o'sishi iqtisodiyotning postindustrial modelga yaqinlashayotganidan darak beradi. Xizmatlar ulushining yildan yilga oshishi quyidagi jarayonlar bilan asosan raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi bank-moliya xizmatlarining kengayishi, transport-logistika tizimining takomillashuvi ta'lim, sog'liqni saqlash va IT xizmatlarining ommalashuvi. Xizmatlar sektorining kengayishi iqtisodiy o'sishni rag'batlantirsa-da, u daromadlar tengsizligini ham kuchaytirishi mumkin, chunki xizmatlar bozorida yuqori malakali va past malakali mehnat o'rtasidagi farq keskin.


Mehnat unumdorligi 2020–2024 yillar davomida sezilarli o'sish bilan ajralib turadi (2,1 foizdan 5,0 foizga). Mehnat unumdorligining oshishi iqtisodiy o'sishning sifat ko'rsatkichi bo'lib, quyidagi omillar natijasidir texnologik modernizatsiya mehnat bozorida malaka oshirish jarayonlarining kuchayishi iqtisodiyotning yuqori qo'shilgan qiymatli tarmoqlarga siljishi korxonalarda boshqaruv standartlarining takomillashuvi. Mehnat unumdorligining oshishi inflyatsion bosimni kamaytiradi, real maoshlar o'sishini qo'llab-quvvatlaydi va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishning sifatini belgilovchi omil sifatida ahamiyatlidir.

2-rasmdagi indikatorlar tahlil qilinganda, O'zbekiston iqtisodiyoti 2020–2024 yillar davomida tiklanish – barqarorlashuv – modernizatsiya ketma-ketligida rivojlanganini ko'rsatadi. Investitsiyalar va xizmatlar sektorining o'sishi iqtisodiyotni



innovatsion modelga yaqinlashtirayotgan bo'lsa, mehnat unumdorligining oshishi iqtisodiy o'sishning sifat jihatidan takomillashayotganini bildiradi.

Sanoatning barqaror o'sishi iqtisodiyotning real sektorini mustahkamlab, YAIM o'sishining asosiy negizini shakllantiradi. Biroq xizmatlar ulushining tez kengayishi mehnat bozorida daromadlar tafovutining ortishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois iqtisodiy siyosatda inklyuziv o'sish tamoyillarini kuchaytirish dolzarb vazifadir.



2-rasm. O'zbekistonda ijtimoiy tengsizlik ko'rsatkichlari (2022–2024)[9]

2-rasmda O'zbekistonda 2020–2024 yillar davomida ijtimoiy tengsizlikning asosiy ko'rsatkichlari Gini koeffitsienti, eng yuqori 10% daromad ulushi, eng past 40% daromad ulushi va qishloq-shahar daromad tafovuti aks ettirilgan. Tahlil shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sish sur'atlariga qaramay, daromadlar taqsimoti notenglikni kuchaytirgan.

Gini koeffitsienti 2020 yilda 0,325 bo'lgan Gini koeffitsienti 2024 yilga kelib 0,334 ga yetgan. Bu ko'rsatkich ijtimoiy tengsizlikning yildan yilga ortib borayotganini ko'rsatadi. O'sish sur'ati (2020–2024) yiliga o'rtacha 0,002–0,003 ga teng bo'lib, iqtisodiy o'sishning inklyuziv emasligini ko'rsatadi: ya'ni, iqtisodiy o'sish hamma qatlamlarga teng taqsimlanmayapti. Gini koeffitsientidagi barqaror o'sish, iqtisodiy siyosatda tengsizlikni kamaytirish mexanizmlarining yetarli darajada amalga oshirilmayotganini bildiradi.

Eng yuqori daromadli qatlarning ulushi 31% dan 35% gacha o'sdi. Bu yuqori qatlarning daromadlar oshishidagi ustunligini ko'rsatadi, ya'ni iqtisodiy foyda asosan yuqori malakali ishchi va kapital egalari tomonidan olinmoqda. Daromadning yuqori qatlamga to'planishi iqtisodiy o'sishning ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga yetarli darajada ta'sir qilmasligini ko'rsatadi. Eng past 40% ulushi 18% dan 17% ga tushgan. Bu daromadlar taqsimotidagi past qatlamlarning nisbiy ulushi kamayayotganini anglatadi. Ya'ni, iqtisodiy o'sish natijalaridan kam daromadli qatlam kamroq foyda



ko'rimoqda. Iqtisodiy o'sish ijtimoiy barqarorlikni oshirish o'rniga, daromadlar tafovutini kuchaytirayotganini bildiradi.

2020 yilda qishloq va shahar aholisi o'rtasidagi daromad tafovuti 24% bo'lsa, 2024 yilda 29% gacha oshgan. Bu tafovutning yildan yilga kengayishi hududlararo iqtisodiy rivojlanishning notekisligini ko'rsatadi. Shahar markazlari, xususan Toshkent va yirik shaharlar, yuqori daromad va xizmatlar bilan ajralib turadi, qishloq hududlari esa iqtisodiy o'sishdan nisbatan chetda qolmoqda. Hududiy tafovut iqtisodiy siyosatda markazlashgan rivojlanishning mavjudligini ko'rsatadi, bu esa tengsizlikni kuchaytiradi va inklyuziv o'sish tamoyillarini talab qiladi.

Gini koeffitsienti, yuqori qatlam ulushi va qishloq–shahar tafovuti birgalikda O'zbekistonda ijtimoiy tengsizlikning yildan yilga oshayotganini ko'rsatadi. Eng past daromadli qatlamning ulushining pasayishi, iqtisodiy o'sishdan kambag'al qatlamning kam foyda ko'rishini bildiradi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, mamlakatda iqtisodiy o'sish barqaror bo'lsa-da, inklyuziv va teng taqsimlangan o'sish modeli hali to'liq amalga oshirilmagan. Siyosiy tavsiya sifatida: hududiy rivojlanish, kambag'allikni kamaytirish va past daromadli qatlamni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan strategiyalarni kuchaytirish lozim.

XULOSA

Ushbu tadqiqot O'zbekiston iqtisodiy o'sishining asosiy omillari va ularning ijtimoiy tengsizlikka ta'sirini tizimli tarzda tahlil qildi. 2020–2024 yillar davomida iqtisodiy o'sish barqaror sur'at bilan amalga oshgan bo'lsa-da, uning natijalari aholi qatlamlari orasida teng taqsimlanmaganligi aniqlandi.

Empirik natijalar shuni ko'rsatadiki, investitsiyalar hajmi, sanoat ishlab chiqarishi va xizmatlar sektori o'sishi O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishiga asos bo'lgan. Ayniqsa, mehnat unumdorligining oshishi va texnologik modernizatsiya iqtisodiy rivojlanishning sifat jihatidan mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Biroq, yuqori malakali ishchi va kapital egalari foydasi oshgani bilan, kambag'al qatlamlar va periferik hududlar yetarli darajada iqtisodiy natijalardan foyda ko'rmagan.

Ijtimoiy tengsizlik indikatorlari Gini koeffitsienti, eng yuqori 10% ulushi, eng past 40% ulushi va qishloq–shahar daromad tafovuti yildan yilga oshib, iqtisodiy o'sish natijalarining inklyuziv bo'lmaganligini tasdiqladi. Natijalar hududlararo tafovutlar va daromadlar notengligini ko'rsatib, iqtisodiy siyosatning markazlashgan rivojlanish modeliga asoslanganini bildiradi.

Tadqiqot shuni ham ko'rsatdiki, iqtisodiy o'sish va tengsizlik o'rtasidagi bog'liqlik murakkab va multidimensional. Sanoat va mehnat unumdorligidagi oshish tengsizlikni kamaytiruvchi omil bo'lsa, xizmatlar sektori va yuqori malakali ish o'rinlarining tez o'sishi, aksincha, daromad tafovutini kuchaytiradi. Shu sababli iqtisodiy rivojlanishning samarali bo'lishi uchun inklyuziv siyosat, hududiy rivojlanish, ta'lim va mehnat bozoridagi malaka oshirish dasturlarining bir vaqtning o'zida amalga oshirilishi zarur.

O'zbekiston iqtisodiy o'sish sur'atlarini saqlab qolish bilan birga, uning natijalarini barcha qatlamlarga teng taqsimlash strategiyasi ustuvor vazifa bo'lib





qolmoqda. Bu esa nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki ijtimoiy barqarorlik va adolatni ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Balbaa, M. E., & Abdurashidova, M. S. Income Inequality and Macroeconomic Determinants in Uzbekistan: An Empirical Analysis.
2. Raxmonov, M. Iqtisodiy O'sishning Asosiy Omillari. Worldly Journals. 3. Berdimuratov, K., & Berdimuratova, Sh. Iqtisodiy O'sish va Rivojlanish Omillari. WOS Journals.
4. Ochilova, M., & Mahammadahliyev, M. Ijtimoiy Tengsizlik va Uni Boshqarish Usullari. Yashil Iqtisodiyot va Taraqqiyot Journal.
5. Ilxomjonov, J. Reducing Inequality through Human Capital Development: A Comparative Analysis of Policies in the European Union and Uzbekistan. Green Eco Journal.
6. Akbarov, N., & Ibodullayev, N. 2020–2024-yillarda O'zbekiston Iqtisodiy O'sish Dinamikasi. Green Eco Journal.
7. The Global Economy. Uzbekistan — Gini Inequality Index.
8. World Bank. Poverty & Inequality Data for Uzbekistan.
9. https://www.green-eco.uz/index.php/GED/article/view/4848?utm_source



2025-yil, №10/[10]-son

Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havoalarga murojaat qilish mumkin.
Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali
2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №083688**

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**